

Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining SIFAT SOHASIDAGI SIYOSATI

“ 14 ” .08.2026-yil

Toshkent shahri.

Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi togʻ-kon sanoati munosabatlarini boshqarish, yer qaʼrini geologik oʻrganish, muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, shuningdek togʻ-kon sanoatini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlik faoliyati mineral-xomashyo bazasini barqaror rivojlantirish, yer qaʼridan oqilona foydalanish, togʻ-kon sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni keng jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hamda davlat xizmatlarini sifatli koʻrsatishga qaratilgan.

Mazkur sifat sohasidagi siyosat vazirlik faoliyatining barcha yoʻnalishlarida samarali boshqaruvni taʼminlash, manfaatdor tomonlarning talab va kutilmalarini hisobga olgan holda, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda vazirlik faoliyati natijadorligini doimiy takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu siyosatga muvofiq vazirlik rahbariyati va xodimlari sifat sohasidagi asosiy maqsad sifatida vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish, yer qaʼridan oqilona foydalanishni taʼminlash, geologiya va togʻ-kon sanoatini barqaror rivojlantirish hamda manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashni belgilaydi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun vazirlik quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni amalga oshiradi:

- togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish;
- togʻ-kon sanoati va metallurgiya tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish hamda investitsiyalarni keng jalb qilish;
- geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish va mineral-xomashyo bazasini kengaytirish;
- yer qaʼridan oqilona foydalanish hamda sanoat xavfsizligini taʼminlash;
- davlat xizmatlarini shaffof, tezkor va sifatli koʻrsatish;
- boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilgʻor tajribalarni joriy etish;
- xodimlarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish.

Mazkur siyosatni amalga oshirish maqsadida vazirlik rahbariyati quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:

- ISO 9001:2015 standarti boʻyicha vazirlik faoliyatiga tatbiq etilgan barcha talablarga rioya etish;
- sifat sohasidagi maqsadlarni belgilash va ularning bajarilishini muntazam monitoring qilish;
- sifat menejmenti tizimining natijadorligini doimiy baholash va takomillashtirish;
- xodimlarni sifat menejmenti tizimi faoliyatiga jalb qilish va ularning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash;
- sifat menejmenti tizimining samarali ishlashi uchun zarur resurslarni taʼminlash;
- mazkur Siyosatni vazirlikning barcha tarkibiy va hududiy boʻlinmalarida qoʻllash hamda uning talablariga rioya etilishini taʼminlash.